



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2026-yil 27-yanvar

№ 2

Toshkent sh.

**Hay'at raisi**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev

**Ishtirok etdilar:**

Z.Ishpulatov, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov,  
D.Xodjiyaxmedov, A.O'razkeldiyev, M.Nadjimov

### **Qatnashganlar:**

**Respublika  
studiyasida:**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hay'at a'zolari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari, Ommaviy axborot vositalari xodimlari (*ro'yxat bo'yicha*)

**Hududiy  
studiyalarda:**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari direktorlari va "O'zsuvqurilish" AJ tarkibidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar rahbarlari (*ro'yxat bo'yicha*)

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bilan hay'at yig'ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti hay'at a'zolari tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

**I. Vazirlik tizimida 2025-yil davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida**

(Xamrayev, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Abdug'aniyev, Taxirov, Fayzillayev, Turdiboyev, Siddiqov, Sadinov, Rizzayev, Radjabov, Alimov, Ataqllov, Qurbonov, Tursunov, Nurmetov, Xamrayev)

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev, Vazirning birinchi o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, M.Karimov va hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari tomonidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, hisobot davrida qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2026-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

## Qaror qildi:

1. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar **qoniqarsiz deb topilsin**.

2. Vazirlikning 2026-yil 19-yanvardagi 5-sonli buyrug‘i bilan:

“Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijrosini ta‘minlashga mas‘uliyatsizlik bilan yondashganligi va ijro intizomiga rioya qilmaganligi uchun Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari J.Jumaniyozov, Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari A.Mustaqov hamda “Jizzaxsuvqurilishinvest” davlat muassasasi direktori v.b. K.Usmonovlarga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **“hayfsan”** e‘lon qilinganligi;

vazirlikning 2026-yil 19-yanvardagi 5-sonli buyrug‘iga asosan Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining joriy yil 20-yanvardagi 55-sonli buyrug‘i bilan Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining bo‘lim boshlig‘i A.Nazariyga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qismi 1-bandiga muvofiq **“hayfsan”** e‘lon qilinganligi;

Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori v.b. N.Xo‘jaqulovga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarining ijrosini bajarish hamda ijro intizomiga rioya etish borasida talabchanlikni susaytirib yuborganligi hamda bu borada xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yganligi uchun **“ogohlantirish”** e‘lon qilinganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari rahbarlariga Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini kechiktirib bajarish, shuningdek, belgilangan muddatlarda, to‘laqonli va sifatli ta‘minlanmaslik holatlaridan tegishli xulosa chiqarishi, shaxsiy mas‘uliyat va javobgarlikni, ijro intizomiga qat‘iy va so‘zsiz rioya etmaslik holatlari uchun **intizomiy jazo muqarrarligini his etgan holda faoliyatini tashkil etishi uqtirib o‘tilsin**.

4. Suv omborlarining texnik holatini yaxshilash, ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta‘minlash va suv ombori atrofiga organik mahsulot yetishtirish bo‘yicha sustkashlikka yo‘l qo‘yganliklari uchun Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i (J.Rizzayev), Farg‘ona vodiysi magistral kanallaridan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i (A.Todjialiyev), Zarafshon magistral tizimidan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i (A.Karimqulov), Tuyatortar-Qli irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i (U.Suyarov), Mirza-Pay irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i (Q.Mirzayev), Surxon-Sherobod irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i (N.Karimov), Yakkabog‘-G‘uzor irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i (A.Erdanov) va Isfayram-Shoximardon irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i (S.Umarov) larga **“ogohlantirish”** e‘lon qilinsin.

5. Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan 2025-yilga belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlamaganligi uchun Amudaryo, Sho‘manoy, Qonliko‘l, Qorao‘zak, Kogon, Qarshi, Kitob, Muborak, Chiroqchi, Chimboy,

Qiziriq, Oltinsoy, Sariosiyo, Boyovut, Guliston, Sayxunobod, Sirdaryo, Quyi-Chirchiq, O'rta-Chirchiq, Yuqori-Chirchiq va Yangiyo'l tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi rahbarlariga **"ogohlantirish"** e'lon qilinsin.

"Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari hisobidagi tuproq o'zanli bo'lgan xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini beton qoplamaga o'tkazishda sustkashlikka yo'l qo'yg'anliklari uchun Bekobod, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Qibray, Oqqo'rg'on, Yangiyo'l va Chiroqchi tumanlari "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi rahbarlariga **"ogohlantirish"** e'lon qilinsin.

**Belgilab qo'yilsinki**, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha 2026-yil uchun belgilangan reja-prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida bajarmagan irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i va ularning birinchi o'rinbosarlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

6. Vazir o'rinbosari M.Karimov, Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va suv kadastri boshqarmasi boshlig'i J.Abdurazzoqov, Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boshqarmasi boshlig'i D.Kdirbayev, Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligining Irrigatsiya tizimlari va yirik gidrotexnika inshootlarini ekspluatatsiya qilish boshqarmasi boshlig'i v.b N.Xudoyberdiyev, Melioratsiya ob'yektlaridan va mexanizmlaridan foydalanish bo'limi boshlig'i R.Komilov Suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i A.Qulmatov, Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori Sh.Xaydarovlarga:

**bir hafta muddatda** "Suv hisobi" axborot tizimida SMS xabarnoma yuborishni yo'lga qo'yish bo'yicha pudrat shartnomalarini imzolash, barcha iste'molchilar kesimida suv yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalarni "Suv hisobi" axborot tizimiga yuklash;

**bir oy muddatda** "Raqamli suv xo'jaligi" yagona platformacida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish va monitoring qilish imkoniyatlarini yaratish, "Suv xo'jaligi obyektlari" axborot tizimini ishlab chiqish ishlarini to'liq yakuniga yetkazish;

**ikki oy muddatda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 13-oktyabrdagi PF-183-sonli Farmoni bilan Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markaziga ajratilgan binoning yerto'la qismini ta'mirlash ishlarini to'liq yakuniga yetkazish, "Davlat suv kadastri" axborot tizimini ishlab chiqish ishlarini to'liq yakunlab, tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, "Melioratsiya" axborot tizimini ishlab chiqish ishlarini to'liq yakunlab, tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;

**uch oy muddatda** "smartwater.uz" axborot tizimini O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda "Kiberxavfsizlik markazi"dan III bosqich tizimning axborot xavfsizligiga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazish;

**yil yakuniga qadar** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-noyabrdagi 55-sonli topshiriqlar bayoni 26-bandiga muvofiq Suv xo'jaligi tizimini raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan barcha axborot tizimlarni Raqamli hukumatning "Data markazi"ga o'tkazish ishlarini yakunlash vazifalari topshirilsin.

7. Vazir o'rinbosari M.Karimov, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i v.b A.Tagayevga:

**1-martga qadar** AQSHning "International finance corporation" Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan birgalikda olib borilayotgan loyiha doirasidagi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Shixjamol" nasos stansiyasini davlat-xususiy sheriklikka berish bo'yicha xalqaro tenderning birinchi bosqichini e'lon qilish;

**ikki oy muddatda** Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori Sh.Xaydarov bilan birgalikda "Davlat xususiy sheriklik" axborot tizimini yaratish va ushbu axborot tizimni amaliyotga to'liq joriy qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

**har oyda** Chortoq tajribasi asosida nasos stansiyalari va sug'orish tarmoqlarini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvga berishning mazmun va mohiyati, afzalliklari hamda tartib va shartlarini tushuntirish bo'yicha tasdiqlangan reja-grafik asosida seminar-treninglarni tashkil qilib borish;

**doimiy ravishda** amaldagi 381 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida xususiy sheriklar tomonidan investitsiya kiritish rejalarini bajarmagan xususiy sheriklarga nisbatan bitim shartlariga muvofiq tegishli choralarni ko'rish vazifalari yuklatilsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar, suv omborlari va sel-suv omborlari hamda xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga:

***bir hafta muddatda:***

2026-yil hosili uchun ekiladigan paxta maydonlarida "Shinjon" usulida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qiladigan fermer xo'jaliklar hamda plyonka va tomizg'ili lenta ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida shartnoma tuzish ishlarini to'liq yakunlash va imtiyozli kreditlar ajratish choralari ko'rish;

"Suv hisobi" axborot tizimida SMS xabarnoma yuborishni yo'lga qo'yish bo'yicha pudrat shartnomalarini imzolash, barcha iste'molchilar kesimida suv yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalarni "Suv hisobi" axborot tizimiga yuklash;

"Suv hisobi" axborot tizimi orqali Soliq organlariga yuborilgan, biroq suv hajmi kamaytirilgan yoki kollektorga o'tkazish maqsadida kelgan dalolatnomalarni tasdiqlash yoki rad etish uchun asos bo'ladigan hujjatlarni vazirlikka taqdim qilish;

***10 kun muddatda:***

1 895 ta tumanlararo gidropostlarning joylashuv nuqtalarini aniq manzilli ro'yxatini shakllantirish;

2025-yil davomida tuman hududiga yetkazib berilgan suv miqdorini yakuniy iste'molchilar kesimida aniq hisobga olinishi hamda iste'molchilar kesimida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni hududiy soliq organlariga va vazirlikka taqdim etish;

2026-yil hosili uchun ekilayotgan g'alla maydonlarida yomg'irlatib hamda diskret sug'orish texnologiyalarini joriy qilish maqsadida "suvkredit.uz" AT orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va quruvchi-pudrat korxonalari o'rtasida pudrat shartnomalarini rasmiylashtirish hamda unga muvofiq moliyalashtirish choralari ko'rish;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-noyabrda 66-son yig'ilish bayoniga asosan 2026-yil bahor mavsumi uchun kanal, kollektor, suv ombori va nasos stansiyalarida ko'chat ekish bo'yicha aniq joylashuvi va sonini ko'rsatgan holda reja ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, avvalgi yillarda ekilgan hamda o'z holiga tashlab qo'yilishi natijasida qurib qolgan ko'chatlarni joriy yil bahor mavsumi rejasiga kiritgan holda qayta ekish;

**15 kun muddatda** moliyalashtirish ochilgan g'alla maydonlarida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish bo'yicha qurilish ishlarini yakunlash choralari ko'rish hamda ushbu ishlarni doimiy monitoring qilib borish;

**20 kun muddatda** 16 281 ta xo'jaliklararo gidropostlarning joylashuv nuqtalarini aniq manzilli ro'yxatini shakllantirish;

*bir oy muddatda* “Dayver” qurilmalardan ma’lumot yuborishda uzilish kuzatilayotgan 2 261 ta hamda umuman ma’lumot yubormayotgan 486 ta qurilmalarni inventarizatsiyadan o’tkazib, sabablarini aniqlagan holda doimiy ishchi holatga keltirish;

***har haftada:***

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan har haftalik Reja-grafik asosida hududlarda o‘quv-seminarlarni o‘tkazilishini tizimli ravishda davom ettirish, hududlarda tashkil etilayotgan o‘quv-seminarlarda aniqlangan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish va natijasi haqida har hafta yakuni bilan vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim etish;

belgilangan prognoz ko‘rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini apparat yig‘ilishlarida tanqidiy ruhda muhokama qilinishini tashkil etish hamda topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va to‘laqonli ta‘minlash bo‘yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish.

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari hisobidagi ichki sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish bo‘yicha ortda qolayotgan tumanlar ro‘yxatini shakllantirib, ishlarni samarali tashkil etish maqsadida aniq muddat va mas‘ullarni belgilagan holda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqib, ijrosini alohida nazoratga olish;

tadbirlarni amalga oshirish davrida yuzaga kelgan hamda viloyat darajasida hal etiladigan muammolarni viloyat hokimligida, respublika darajasida yuzaga kelgan muammolarni vazirlikning tegishli boshqarmalari bilan birgalikda hal etish;

xususiy sheriklar tomonidan amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik bitimlarida ko‘zda tutilmagan boshqa tadbirlarni hududiy Ishchi guruhlar tomonidan o‘rganib chiqish hamda vazirlikka amaldagi bitimlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

investitsiya majburiyatini bajarmagan xususiy sheriklarga talabnomalar yuborish va majburiyatlarini bajarmagan xususiy sheriklarga qonuniy chora ko‘rish bo‘yicha sud organlariga da’vo ariza kiritish;

2026-yil uchun byudjetdan ajratilgan mablag‘larni o‘z vaqtida oyma-oy maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash;

sanoat va energetika korxonalariga yetkazib berilgan texnik suv to‘lovlarini o‘z vaqtida undirish choralari ko‘rish hamda xatlovlar o‘tkazib yangi iste‘molchilarni aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o‘z vaqtida to‘lovlarini amalga oshirmagan iste‘molchilarga nisbatan mablag‘larni undirish bo‘yicha iqtisodiy sudlarga tegishli da’vo arizalarini kiritish;

vazirlikning tizim tashkilotlarning rivojlantirish jamg‘armasiga mashina-mexanizmlar yordamida pudrat shartnoma tuzish orqali, vaqtincha bo‘sh turgan bino-inshootlar hamda muhofaza zonalarini ijaraga berish, metallolom topshirishdan, yordamchi xo‘jalik va boshqa manbalar hisobidan mablag‘lar tushirish choralari ko‘rish;

suv xo‘jaligi obyektlari (*suv havzalari, daryolar, ko‘llar, suv omborlari, gidrotexnika va boshqa suv xo‘jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqalari*) amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari, bino va inshootlardan samarali, maqsadli foydalanishini tashkil etish;

korruptsiyaga nisbatan muhosabatni shakllantirish, korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash;

vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'ini suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan barcha darajadagi rahbar-xodim va ishchilar tomonidan har kuni ko'rib chiqilishini va o'qib borilishini tashkil etish hamda vazirlik faoliyatiga oid muhim voqealar va tadbirlarni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

9. Mazkur hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilishni vazirning birinchi o'rinbosari-Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov hamda vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev va M.Karimovlarga yuklab, uni nazorat qilishni o'z zimmasiga qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

## **II. 2025-yilning IV choragida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni baholash haqida**

(Xamrayev, Xasanov, Ishpulatov, Qarshiyev, Sheraliyev, Karimov, Xamrayev)

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi A.Xasanov tomonidan 2025-yilning IV choragida Suv xo'jaligi vaziri va o'rinbosarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi *"Qishloq va suv xo'jaligi sohalaridagi vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to'g'risida"*gi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan yuzasidan taqdim etilgan axborot va hisobotlarni tinglab, 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha I choragiga belgilanayotgan faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishi bo'yicha ularning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

### **Qaror qildi:**

1. Suv xo'jaligi vaziri va vazirining o'rinbosarlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 265-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. 2025-yilning IV choragi yakunlari bo'yicha joriy yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini ta'minlash yuzasidan:

Vazirning birinchi o'rinbosari Z.Ishpulatovning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 8 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 100,0 foizni;

Vazirning o'rinbosari R.Qarshiyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 10 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 100,0 foizni;

Vazirning o'rinbosari O'.Sheraliyevning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 7 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha umumiy samaradorlik ko'rsatkichi 100,0 foizni;

Vazirning o‘rinbosari M.Karimovning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholash 9 ta asosiy mezonlarda belgilangan reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi 100,0 foizni tashkil etganligi inobatga olinsin.

Suv xo‘jaligi vaziri va vazirining o‘rinbosarlarining 2025-yilning IV choragi yakunlari bo‘yicha eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) **“a’lo” deb baholansin.**

**Belgilab qo‘yilsinki**, hisobot davrida faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari reja ko‘rsatkichlarini baholash reytingi natijalariga ko‘ra, faoliyat samaradorligi **qoniqarsiz** deb topilgan taqdirda Vazir o‘rinbosarlarining mas’uliyati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritiladi.

3. Vazirning birinchi o‘rinbosari Z.Ishpulatov, vazir o‘rinbosarlari O‘.Sheraliyev, R.Qarshiyev va M.Karimovlarga:

2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini so‘zsiz ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-avgustdagi *“O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”*gi PQ-250-sonli qarori bilan tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlarga asosiy e’tiborni qaratish;

vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro‘yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida **45 kun oldin** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Davlat rahbari, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag‘ talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha birinchi navbatda shug‘ullanib, ularni to‘laqonli va sifatli ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani Vazir o‘rinbosarlari, lozim bo‘lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

4. Strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limi boshlig‘i S.Musurmonovga:

**har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar** 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ning hisobot davri (*choraklik*) yakuni bo‘yicha natijalarni (*ma’lumot va tahliliy materiallarni*) hay’at yig‘ilishi muhokamasiga kiritib borilishini ta’minlash;

**har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar** amalga oshirilgan ishlarni baholash yakunlarini Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining “samaradorlik.uz” elektron platformasiga kiritish hamda unda Vazir va vazir o‘rinbosarlari faoliyatining samaradorligi reytingini baholash borasida hamkorlikda ishlash;

**har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar** Vazir va vazir o‘rinbosarlarining faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlarining natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Axborot xizmati boshlig‘i Sh.Suyunov Suv xo‘jaligi Vazir va vazir o‘rinbosarlarining 2025-yilning IV choragi faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, tele va radiokanallar, vazirlikning rasmiy veb-sayti,

Vazirlikning Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Ushbu qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay'at yig'ilishi yakunida hay'at raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga bugungi hay'at yig'ilishi qabul qilgan qaror asosida **2 kun muddatda** joylarda 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalarining har oyga (*kunlik*) qilib ish rejalarini ishlab chiqish va uning ijrosini tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Vazir



Sh.Xamrayev